Ushbu ilmiy ishning asosiy maqsadi — Sirdaryo viloyatida turizm sohasini takomillashtirish, mavjud turizm resurslaridan samarali foydalanish orqali turistlar oqimini shakllantirish, viloyatning turizm salohiyatini tahlil qilish asosida turizm turlarining sonini ko'paytirish, hudud infratuzilmasini rivojlantirish va uni turizm bilan uyg'unlashtirishning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sirdaryo viloyatining turizm imkoniyatlari va turizm resurslariga oid ma'lumotlar hozirgi kungacha yetarlicha o'rganilmagan. Shu sababli mazkur mavzuga oid ilmiy izlanishlar faqat ayrim mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan bo'lib, mavjud adabiyotlar tahlili davomida I.S. Tuxliyev, B.Sh. Safarov, R. Xaitboyev, Z.O. Raximov, N.E. Ibadullayev kabi olimlarning tadqiqot ishlari o'rganildi va tahlil qilindi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishining amalga oshirilishi jarayonida qiyosiy tahlil, tizimli solishtirish, ilmiy-abstrakt fikrlash hamda mantiqiy yondashuv kabi usullardan samarali foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sirdaryo viloyati — 1963-yil 16-fevralda tashkil etilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik hisoblanadi. U shimolda Qozog'iston Respublikasi, sharqda Toshkent viloyati, janubda Tojikiston Respublikasi, g'arbda esa Jizzax viloyati bilan chegaradosh.

Hudud reliefi asosan to'lqinsimon tekislikdan iborat bo'lib, janubdan shimoli-g'arbga tomon pasayib boradi. Mirzacho'l dashtining bir qismi viloyat hududiga kiradi. Absolyut balandlik shimolda 230 metr, markaziy qismida 400–450 metr, janub va janubi-g'arbda esa 600–650 metrni tashkil etadi. Viloyatning sharqiy qismida keng Sirdaryo vodiysi joylashgan.

Viloyat maydoni 4,3 ming km² ni tashkil etadi. Ma'muriy markazi — Guliston shahri. 2025-yil 1-aprel holatiga ko'ra, Sirdaryo viloyati aholisi 934,5 ming kishini tashkil qilgan. Shundan 402,0 ming nafari shaharlarda, 532,5 ming nafari esa qishloqlarda istiqomat qiladi [3].

Ma'muriy tuzilmasi 8 ta tuman, 5 ta shahar va 25 ta shaharchadan iborat. Yirik shaharlari — Guliston, Yangiyer, Sirdaryo va Shirin.

Sirdaryo vohasi qadimdan muhim geografik hudud bo'lib, bu yer orqali So'g'd, Choch va Farg'ona o'lklarini bog'lovchi yo'llar kesishgan. Viloyat hududidagi eng qadimgi aholi manzilgohlari sug'orish uchun qulay bo'lgan daryo va soy bo'ylarida paydo bo'lgan. Ilk aholilar viloyat hududidagi Xo'jamushkentsoy, Sho'rbuloqsoy, Mo'g'olsoy, Tog'obsoy, Sarmishsoy va Sirdaryo bo'ylarida yashagan.

Arxeologik tadqiqotlarga ko'ra, dastlabki dehqonchilik manzilgohlari Xo'jamushkentsoy va Sho'rbuloqsoy bo'ylarida bundan 3000 yil ilgari paydo bo'lgan. Bu tabiiy hol, chunki yuqoridagi soylar sersuv bo'lib, atrofdagi yerlar unumdor bo'lgan. Sho'rbuloqsoy bo'yida joylashgan yodgorliklar orasida eng qadimgilari — Eski Xovos va Nurtepa yodgorliklaridir. Ular miloddan avvalgi I ming yillik o'rtalarida bunyod etilgan.

Sirdaryo viloyati hududida arab geograflari tomonidan tilga olingan ikkita manzilgoh — Sabat va Xovos mavjud. Xovos shu nomdagi rustak (qishloq okrugi) markazi bo'lgan. Yozma manbalarda u haqida deyarli ma'lumot uchramaydi. Arab geograflari esa uni faqat karvon yo'llari chorrahasidagi manzilgoh sifatida eslab o'tgan. Ibn Xavqal Xovos yo'li haqida "Agarda kim Zomindan Xo'jandga Xovos yo'li orqali bormoqchi bo'lsa, uning yo'lida Kurkat uchraydi", deb yozgan.

Mashhur sharqshunos V.V. Bartold esa Chirchiq vodiysiga ikki yo'l olib borilishini — biri Xovos, ikkinchisi Jizzax orqali ekanligini qayd etgan [2]. Xovosning Ustrushona shaharlari qatorida tilga olinmagani, u o'sha davrda hali qishloq bo'lganidan dalolat beradi. XI asr boshlarida Xovos Somoniylar sulolasining so'nggi vakili Muntasir (Abu Ibrohim Ismoil ibn Nuh) va Qoraxoniylar o'rtasida bo'lgan janglar bilan bog'liq holda tilga olinadi.

Yoqut Hamaviy (XIII asr) yozishicha, "Xovos — Ustrushonadagi qishloq". Viloyatning shimoliy-sharqiy qismida, Shosh va Ustrushona chegarasida yana bir o'rta asrlarga oid shahar bo'lgan, ammo yozma manbalarda bu haqda ma'lumot uchramaydi. Uning qoldiqlari Nurota yodgorligida saqlanib qolgan. Bu yerda topilgan bo'yalgan sopol idishlar Shosh bilan aloqalarning kuchliligidan dalolat beradi. Ularda Shosh sopolchilik maktabining uslubi aks etadi. Shuningdek, topilgan tangalar ham Shoshda zarb qilingan. Boshqa manbalarda



Ustrushona bilan aloqalar mavjud bo'lib, Kultepa yodgorligi ham Sabat orqali Xovos yo'li bilan Shoshga olib boruvchi yo'lda joylashgan.

Bugungi kunda Nurota yodgorligidan faqatgina arkning bir qismi saqlanib qolgan. Movarounnahrda janubiy va shimoliy viloyatlarni bog'lovchi karvon yo'llarining mavjudligi bu hududda shaharlik hayot rivojlanganidan dalolat beradi.

Ibn Xurdodbeh yozganidek: "Bu yo'l Xovosdan Ash-Shosh daryosi qirg'og'igacha 9 ming qadam, so'ngra ko'prikdan Banokatga o'tiladi", deb arab geograflari tomonidan eslatib o'tiladi.

Viloyat tarixiga oid muhim yodgorliklardan biri — Sardoba tumanida joylashgan Sardoba yodgorligidir. "Sardoba" forscha so'z bo'lib, "sard" — sovuq, "ob" — suv degan ma'noni anglatadi. Ya'ni, "muzdek suv". Sardobalar karvon yo'llari bo'yida barpo etilgan bo'lib, ipak yo'li orqali harakatlanayotgan karvonlarning suv ehtiyojini qondirish uchun xizmat qilgan. Ular hozirgi kunda ham o'zining tarixiy jozibasini yo'qotmagan va ichki hamda xalqaro turizmni rivojlantirishda muhim obyektlardan biri sanaladi.

O'tgan asr tarixchilarining ma'lumotlariga ko'ra, yog'ochli Sardoba yaqinida karvonsaroy hamda bog'rog'lar bo'lgan. Sardoba gumbazzimon shaklda bo'lib, nihoyatda sifatli g'ishtlardan qurilgan. G'ishtlarning o'lchami 25×25×5 sm. Gumbazning ichki diametri — 15 metr, balandligi — 12 metr. Ichki qismida balandligi 2 metr bo'lgan uyasimon tuynuklar joylashtirilgan. O'tgan asrda sardoba ichida evropaliklar tomonidan quduq qazilgan, uning devorlari yog'och bilan qoplangan. Sardoba devorining pastki qismidagi qalinligi 1,5 metrni tashkil qilsa, yuqoriga qarab torayib borib, gumbazning yuqori qismida bir g'isht qalinligigacha kamaygan. Suvning aynib qolmasligi uchun sardobaga uchta maxsus shamollatish tuynugi o'rnatilgan, gumbazning tepa qismi esa ochiq qoldirilgan. Shu sababli sardoba suvi muzdek, tiniq va toza bo'lgan.

Olis o'tmishda hozirgi Sirdaryo viloyati hududidan, ya'ni Mirzacho'l orqali Buyuk Ipak yo'li va savdogarlarning karvon yo'llari o'tgan. Poyonsiz cho'llarda sayg'oqlar poda-poda bo'lib harakatlangan. O'sha davrlarda otabobolarimiz cho'l sharoitida yashashning o'ziga xos usullarini bilganlar hamda karvonlar uchun kengliklarda to'xtash va hordiq chiqarish maskanlarini bunyod etishni yaxshi o'zlashtirganlar. Buning uchun irrigatsiyaning noyob usullari qo'llanilgan bo'lib, hozirda sardoba deb ataluvchi ushbu tabiiy-madaniy va me'moriy inshootlarning ba'zilar Sirdaryo viloyati hududida saqlanib qolgan.

Sirdaryoliklar suv qadrini chuqur anglaganliklari sababli, muzdek suvni uzoq muddat saqlash imkonini beruvchi bunday obidalarni asrab-avaylab keladilar. Shu sababli viloyatdagi tumanlardan biriga Sardoba tumani nomi berilgan. Viloyat tabiatining o'tmishi va bugungi holati o'rtasida jiddiy farq mavjud. Chunki inson omili ta'sirida Mirzacho'l hududiga madaniy dehqonchilik jadal sur'atlarda kirib kelgan va bu holat uning bioxilmaxilligiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan.

Bir zamonlar poyonsiz kengliklarda o'sib yotgan yovvoyi o'simliklar bugungi kunda o'z o'rnini madaniy ekinlarga bo'shatgan. Paxtachilik, g'allachilik, bog'dorchilik, uzumchilik va sabzavotchilikda erishilgan yutuqlar tufayli, Sirdaryoda yetishtirilayotgan poliz mahsulotlari nafaqat respublika, balki xalqaro bozorlarda ham o'z nufuziga ega. Ayniqsa, an'anaviy "Qovun sayli" tadbiri ushbu hududning xalqaro turizm reytingini oshirishga xizmat qilmoqda.

Viloyatning umumiy maydoni 427,6 ming gektarni tashkil qiladi. Uning qariyb 60 foizida dehqonchilik bilan shug'ullaniladi. Maydonning 1 foizga yaqin qismi o'rmonzorlar, 5 foizi esa yaylovlardan iborat. Hududda qish mo'tadil kechadi. Ba'zi hollarda harorat -34 °C gacha pasayishi mumkin. Yoz fasli esa quruq va issiq bo'lib, harorat +42...+45 °C gacha ko'tariladi.

Suv zahiralari cheklangan bo'lib, viloyatning asosiy suv manbai Sirdaryo daryosi hamda undan tarqalgan sun'iy kanallar hisoblanadi. Shuningdek, hududda bir necha ko'l va sun'iy suv havzalari mavjud bo'lib, ularda 20 dan ortiq baliq turlari yetishtiriladi [1]. Bundan tashqari, viloyatda 10 ga yaqin zilol suvli tabiiy buloq ro'yxatga olingan. Ular orasida Xo'jamushkent, Sag'anoq, Sarmich va Tojikiston Respublikasi chegarasiga yaqin joylashgan O'ratepa buloqlari alohida ahamiyatga ega.

Viloyat hududida bitta muhofaza etiladigan hudud mavjud bo'lib, u 1995-yil tashkil etilgan va Sirdaryo bo'yidagi to'qayzorlarda joylashgan "Sayxun" xo'jaligi hisoblanadi. Mazkur xo'jalik yovvoyi o'rdak va g'ozlarni ko'paytirishga ixtisoslashgan bo'lib, 382 gektar maydondagi to'qayzorlarni asl holatida saqlab qolishga qaratilgan. Ushbu hududda O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga kiritilgan 30 dan ortiq daraxt, buta va boshqa o'simlik turlari o'sadi. Shuningdek, dasht qora iloni, to'ng'iz, shoqol, Sirdaryo qirg'ovuli hamda 20 dan ziyod yovvoyi qush turlari uchraydi.

Sirdaryo tumanining Qozog'iston Respublikasi bilan chegaradosh hududlarida bahorgi toshqinlar davrida daryo suvi toshib, suvda suzuvchi qushlar uchun qulay qo'nish maskanlari yuzaga keladi. Ana shu davrlarda bu yerga o'n minglab suvda suzuvchi qushlar qo'nadi. Ular orasida O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga kiritilgan quyidagi noyob qushlar mavjud: qoshiqburun, vishildoq oqqush, pushti saqoqush, jingalak saqoqush, olaqanot va marmar churrak.

Sirdaryo viloyatida faqat ushbu hududga xos bo'lgan va "Qizil kitob"ga kiritilgan Maligin baliqqo'zi hamda qora sirttan kabi noyob o'simliklar mavjud. Shuningdek, oq sazan, Turkiston mo'ylabdori, ko'ndalang yo'li




bo'ritish, olaqanot, ilonburgut, dasht burguti, burgut kabi noyob jonzorlar ham yashaydi. Ulardan Bogdanov yirtqichi faqat Sirdaryo hududiga xos bo'lgan maxsus tur sifatida ajralib turadi.

Viloyat hududi qurilish materiallariga boy bo'lib, ayniqsa Sirdaryo bo'yidagi to'qayzorlar ekoturizmni rivojlantirish uchun nihoyatda qulay. Turizm sohasini rivojlantirishda esa poydevor vazifasini aynan turistik resurslar bajaradi. Beqiyos tabiiy-geografik, tarixiy-diniy va zamonaviy turistik resurslarga ega bo'lgan Sirdaryo viloyatini jahon hamjamiyatiga tanitish, xorijiy sayyohlar hamda mahalliy aholini keng jalb etish — ushbu soha rivojining dolzarb vazifasidir.

Bugungi kunda Sirdaryo viloyatida iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda. Hududdan o'tuvchi "Toshkent–Termiz" Katta O'zbek Trakti viloyatda turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun muhim imkoniyat hisoblanadi. Mamlakatda turizm sohasining ustuvor yo'nalish sifatida tan olinishi, sohaga oid qabul qilinayotgan qonunlar, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasining tashkil etilishi bu sohada olib borilayotgan islohotlarning yaqqol dalilidir.

Hozirgi kunda Sirdaryo viloyati hududida 78 ta turistik obyekt ro'yxatga olingan bo'lib, ularning 18 tasi arxeologik, 15 tasi arxitektura, 41 tasi me'moriy san'at yodgorliklari hamda 4 tasi diqqatga sazovor joylardir. Viloyatdagi turizm obyektlari soni bo'yicha Guliston shahri yetakchi o'rinni egallaydi. Uning umumiy turistik obyektlardagi ulushi 34,6 foizni tashkil etadi. Keyingi o'rinlarda esa mos ravishda 11,5 foiz bilan Sirdaryo va Xovos tumanlari qayd etilgan. Qolgan tuman va shaharlarda bu ko'rsatkich 10 foizga yetmaydi yoki ko'pi bilan 6 ta turistik obyekt mavjudligini 1-jadval ma'lumotlari orqali kuzatish mumkin.



1-jadval. Sirdaryo viloyatining ma'muriy-hududiy birliklari bo'yicha turistik obyektlarning taqsimlanishi

Viloyatda mehmonxona va shunga o'xshash turistlarni joylashtirish vositalarining umumiy soni 18 ta bo'lib, ulardagi umumiy joylar soni 1042 tani tashkil etadi. Bundan tashqari, Sirdaryo viloyatida 1 ta muzey, 1 ta teatr, 4 ta madaniyat va istirohat bog'i faoliyat yuritmoqda. Muzey fondi turli eksponatlardan iborat bo'lib, ularning umumiy soni 1296 taga yetadi. Xususan:

rassomlik asarlari — 174 ta,
 numizmatika eksponatlari — 199 ta,
 maishiy va etnografik buyumlar — 127 ta,
 amaliy san'at buyumlari — 291 ta,
 suratlar — 96 ta,
 arxeologik topilmalar — 358 ta,
 qadimgi rasmiy hujjatlar — 7 ta,
 boshqa turdagi eksponatlar — 44 tani tashkil etadi [4].

Sirdaryo viloyati O'zbekistonning markaziy qismida, mintaqaning yirik daryolaridan biri — Sirdaryo bo'yida joylashgani bois, hududda turizmning ayrim turlari, ayniqsa agro-ekoturizmni rivojlantirish uchun katta salohiyat



mavjud. Shu omilni inobatga olgan holda, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan viloyatning mazkur yo'nalishdagi imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, viloyatning turistik salohiyatini ro'yobga chiqarishda xorijiy va ichki turistlarni jalb etuvchi jihatlar, xususan, "Sharq ekzotikasi" konsepsiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Viloyat hududidan o'tuvchi avtomagistral yo'llar bo'yida tuyachilik bilan shug'ullanuvchi tadbirkor va fermer xo'jaliklari tomonidan an'anaviy o'tovlar qurilgan bo'lib, ularda tuya suti, milliy taomlar hamda esdalik sovg'alari savdosi yo'lga qo'yilgan.

Sirdaryo viloyatida turizm sohasining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar va ularning tuzilmaviy elementlari quyidagi 2-jadvalda keltirilgan:

2-jadval. Turizmni rivojlantirishning asosiy omillari va tuzilmaviy elementlari

Asosiy omillar	Tuzilmaviy elementlar
Turistik	Tabiiy geografik Tarixiy-madaniy Zamonaviy turistik
Ijtimoiy - iqtisodiy	Turistik ehtiyojlarning qondirilishi Mahalliy ishchi kuchi bilan ta'minlanganlik Turizmning rivojlangan turlari haqida ma'lumotlarning mavjudligi
Tashkiliy-boshqaruv	Mintaqada Turistik faoliyatning tashkil etilishi va uning moliyalashtirilishi Turistik infratuzilmalarning rivojlanganligi Mintaqaning transport-logistik imkoniyati Turistlar xavfsizligining ta'minlashi

So'nggi yillarda Sirdaryo viloyatining turistik resurslari hududiy jihatdan kengaymoqda. Ayniqsa, ekoturizm, rekreatsion turizm va agroturizm yo'nalishlarining rivojlanish sur'atlari yuqori. Qolaversa, zamonaviy turistik xizmatlarni yo'lga qo'yish, xizmatlar tarmog'ini diversifikatsiya qilish uchun viloyat hududida barcha zarur infratuzilmaviy va tabiiy sharoitlar mavjud.

3-jadval. Sirdaryo viloyatidagi turistik resurslarning hududiy taqsimlanishi

Turistik resurslar	Tarkibi	Hududiy joylashuvi
Tabiat komponentlari, boyliklari va biologik xilma-xilligi	Cho'l tabiati, relyefi, flora va faunasi	Viloyat bo'yicha
Sirdaryo daryosi va uning havza resurslari	Daryo, uning sohilidagi turistik-rekratsion resurslari, o'rmon xo'jaligi va boshqa o'simliklar	Boyovut, Guliston, Sayxunobod, Sirdaryo
Arxeologik turizm resurslari	Qadimiy qal'alar, Arxeologik yodgorliklar	Sirdaryo, Xovos, Sardoba, Guliston, Boyovut, Oq oltin, Guliston shahri.
Ziyorat va tarixiy turizm turlari	Tarixiy obidalar, diniy muqaddas joylar	Sirdaryo, Guliston, Sardoba, Xovos

Xorijiy va mahalliy sayyohlar uchun viloyatda dam olish maskanlari, zamonaviy kempinglar, savdo shohobchalari (supermarket, suvenirlar do'koni, qo'l mehnati bilan yasalgan mahsulotlar do'koni), sanitariya-gigiyena maskanlari, ko'ngilochar obyektlar barpo etilgan. 2021–2022-yillar davomida viloyatda 5 ta mehmonxona va 10 dan ortiq oilaviy mehmon uylari, jumladan, Mirzaobod, Boyovut, Sayxunobod tumanlari, shuningdek, Guliston va Shirin shaharlarida tashkil etildi.

Turizm turlarini va xizmat ko'rsatish sifati hamda turistlar sonini 2 barobarga oshirish, ularning qolish muddatini uzaytirish maqsadida viloyatda agroturizm, tibbiy turizm va ekoturizm yo'nalishlarini rivojlantirish, xususan, intensiv bog'lar, zamonaviy tibbiyot muassasalari va Sirdaryo daryosi atrofidagi dam olish maskanlarida (Barxan, Ali va Kalgansir) qo'shimcha turistik obyektlar barpo etildi.



2021-yilda daryo bo'ylarida ekoturizm obyektlarini tashkil etish choralari ko'rib, Xovos tumanidagi "Xovosobod" mahalla fuqarolar yig'iniga "Turizm qishlog'i" maqomi berildi va "Baliqchilar" hamda "Ovchilar" uyushmasi bilan hamkorlikda ekoturizm maskanlari tashkil etildi.

Tarixchi olimlarning ma'lumotlariga ko'ra, Xovosda ilgari 28 ta tabarruk qadamjoy mavjud bo'lgan, hozirda esa ulardan 12 tasi saqlanib qolgan. Quyidagi 4-jadvalda Sirdaryo viloyati tumanlarida saqlanib qolgan turistik maskanlar va ziyoratgohlar to'g'risida qisqacha ma'lumotlar keltirilgan:

4-jadval. Sirdaryo viloyatining tumanlarida saqlanib qolgan turistik maskan va ziyoratgohlar

Turistlar boradigan manzillar ketma-ketligi va davomiyligi	Turizm turlari va turistik obyektlar haqida ma'lumotlar
Guliston shahri. Sirdaryo viloyatining tarixi va madaniyati davlat muzeyi	Ma'naviy, ma'rifiy va tarixiy turizm. Muzey 1907-yilda Knyaz Aleksevskiy tomonidan qurilgan tarixiy arxitektura yodgorlikda joylashgan bo'lib, u 1990-yil 13-dekabr Xalq deputatlari ijroiya qo'mitasining 30/263-sonli qaroriga asosan tashkil etilgan. Muzeyda 4 ta bo'lim, 247 ta eksponatlar mavjud.
Boyovut tumani. Usmon Yusupov xotira majmuasi	Ma'naviy va tarixiy turizm. Majmua 2020-yilning 9-dekabrida rasmiy ochilgan. Unda O'zbek xalqining yetuk davlat va jamoat arbobi Usmon Yusupov faoliyati bilan bog'liq bo'lgan tarixiy lavhalar o'rın olgan.
Yangiyer shahri. "Yangiyer" sanatoriyasi	Rekratsion turizm. Sanatoriya 230 o'rinli bo'lib, 32,3 gektar maydonni egallaydi. Shifo maskani eng zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlangan bo'lib, 30 ga yaqin muolaja, 5 ta ma'muriy, 70 dan ortiq davolanuvchilar xonasi, har biri 230 o'rinli madaniyat saroyi va oshxona, 2500 kitob fondiga ega kutubxona va 10 o'rinli o'quv zali davolanuvchilar uchun tashkil etilgan. Muassasada asab, kardiologiya, nevrologiya, genekologiya, ayollar bepustligi, urologiya va boshqa kasalliklar bo'yicha muolaja olib boriladi. Bemorlarga Aydar-Arnasoy ko'llaridan olib kelinayotgan shifobaxsh balchiq, parafin, Surxondaryodan olib kelinayotgan shifobaxsh qum, ma'danli suv orqali vanna, suv massajlari "tuzli g'or" xonalarida davolanish olib boriladi.
Xovos shahri. Xovos o'lkashunoslik muzeyi	Ma'naviy, ma'rifiy va tarixiy turizm. Xovos shahri markaz, Xotira maydoni hududida tashkil etilgan muzey, 2020-yilda o'z faoliyatini boshladi. Bu yerdagi noyob eksponatni "Ko'hna Xovos" tepaligi ziyoratgohidan topilgan.
Xovos tumani. "Ko'hna Xovos tepaligi" arxeologik yodgorligi	Tarixiy va arxeologik turizm. Viloyat hududidagi eng qadimiy shaharlardan biri-Xovos bo'lib, bu shahar qadimda zilzilalar orqali buzilib, vayronaga aylangan va ko'milib ketgan. Uning 1 ga dan ziyodi arka va 11 gektarlik qismlari tepalik ostida vayron holda saqlanib qolgan. Shahristonning ba'zi joylari va rabotlari yo'q bo'lib ketgan. Endilikda uning o'rnida Xovos tumani markazi yaqinida joylashgan mahobatli Xovostepa yodgorligi qad rostlab turibdi. Shahar qadimda katta hududni egallagan. Xovos nihoyatda qadimiy shaharlardan biri bo'lib, u kamida 2400-2500-yillik tarixga ega. Shuning uchun u nafaqat Sirdaryo viloyatidagi, balki mamlakatimizdagi ko'hna shaharlardan biri, deb e'tirof etiladi[5]. 1988-1989-yillarda arxeologlar A.Gritsina, V.Nabokov va Yu.Buryakovlar tomonidan olib borilgan qazishmalarida tepalik ostida bir necha madaniy qatlam borligi aniqlandi. Dastlabki madaniy qatlam antik davrga tegishli bo'lib, u miloddan avvalgi IV-III asrlarga oid uy-joy qoldiqlari, metalsozlar binolari, metall eritadigan qozon o'rinlari va xum idishlar topilgan.
Xovos tumani "Xasti buzurgon" ziyoratgohi	Ziyorat va tarixiy turizm. "Xasti buzurg" ziyoratgohida "Xasti buzurg" laqabi bilan ulug'langan Jobir boboning qabri joylashgan. Rivoyat qilishlaricha Jobir bobo Xovos va uning atroflariga Islom dinini targ'ib qilish uchun kelgan. U kishi Xovos hududini obod qilishda qatnashgan va xalq o'rtasida ilm-ma'rifat tarqatishda ulkan hissa qo'shgan.
Xovos tumani "Bibi ocha" ziyoratgohi	Tarixiy turizm. Ziyoratgohda Jobir boboning turmush o'rtog'i Bibi Xadicha dafn etilgan. Bu yerda ona yoki buviga "ocha" deya murojaat qilingani tufayli ziyoratgohning nomi "Bibi ocha" deya e'tirof etilgan.
Xovos tumani "Yusuf bobo" ziyoratgohi	Tarixiy turizm. Qadimda Xovosda temirchilik bilan shug'ullangan va tabiblik qilgan, keyinchalik "temirchilar piri" deb ulug'langan Yusufbobo maqbarasi joylashgan.



Xovos tumani “Sherbobo” ziyoratgohi	Tarixiy turizm. “Sherbobo” maqbarasida olis o'tmishda Xovosni dushmanlardan himoya qilishga bosh bo'lgan Ibrohim ismli sheryurak inson dafn etilgan.
Xovos tumani “Namozgoh” masjidi	Ziyorat turizmi. Qadimda “Namozgoh” masjidini xovosliklar Jobir boboning yetuk va donishmand farzandi sharafiga “Sa’du Sa’id” (Sayidlarning ulug’i) nomi bilan atashgan.
Sardoba tumani “Yog’ochli Sardoba” arxeologik yodgorligi	Tarixiy turizm. “Yog’ochli Sardoba” gumbazi Sardoba tumanidagi Toshkent-Samarqand-Buxoro shaharlarini bog’lovchi avtomagistral yo’l yoqasida joylashganligi uchun ham yo’lovchilar uchun juda qiziqarlidir. Sardoba haqidagi ilk ma’lumotlar Hofiz Tanish al-Buxoriyning “Abdullanoma” asarida keltirilgan. Buxoro xoni Abdullaxon II Toshkentga yurish vaqtida shu hududda dam olish uchun to’xtab, suvsizlikdan askarlari uchun sardoba va karvonsaroy qurishni buyuradi. Inshoot g’ishtlari kvadrat shaklida bo’lib, gumbazining ichki diametri 15 m, balandligi 12 m tashkil qiladi. Sardobaning ichki qismida yerdan 2 m balandlikda yopiq uyasiimon tuynuklar joylashgan. Devorning qalinligini pastki qismida 1,5 m, yuqoriga ko’tarilgan sari yupqalashib boradi va eng yuqori qismida uning qalinligi bir g’isht ko’rinishiga ega bo’ladi. Avvalari unga faqatgina shimol tarafdin kirilgan, qolgan uch tarafdin ark ko’rinishidagi tuynuklar bo’lgan. Kirish arkasimon shakldagi g’ishtli zinapoyalar orqali sardoba ichkarisiga o’tiladi.

5-jadval. Sirdaryo viloyatidagi turistlarni jalb qiladigan infratuzilma bino va inshootlari

Guliston shahri “Armada Carpet” MCHJ	Shop turizm. Korxona 2017-yilda tashkil etilgan bo’lib, unda 3 xil turdagi zamonaviy va milliy ko’rinishga ega gilam mahsulotlari ishlab chiqariladi. Bugungi kunda korxona Qozog’iston va Qirg’iziston Respublikalariga mahsulot eksportini amalga oshiradi.
“Xoji Gadoyboy” fermer xo’jaligi	Mazkur fermer xo’jaligida zamonaviy gidroponika usulida issiqxona tashkil etilgan. Unda eksportga yo’naltirilgan poliz mahsulotlaridan pomidor, bodring va gullar yetishtiriladi.
Mirzaobod tumani. “Mirzacho’l Donald Dak” tuyachilik markazi	Tuyachilik markazi 2019-yilda tashkil topgan bo’lib, bugungi kunda maskanda 50 ga yaqin tuya va bo’taloqlar boqilmoqda. Shuningdek, tuya suti va qumron mahsuloti shifobaxsh bo’lganligi sababli, bu yerga har yili qo’shni viloyatlardan 1000 ga yaqin davolanuvchilar sog’lig’ini tiklash maqsadida tashrif buyuradi.
Mirzaobod tumani. “Dehqonobod asl anorlari” ishlab chiqarish korxonasi	Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtirilgan Germaniya Xalqaro hamkorlik jamiyati tomonidan amalga oshirilgan “O’zbekiston qishloq hududlarini barqaror rivojlantirish” loyihasi asisida “Dehqonobod asl anorlari” korxonasida “Tabiiy anor sharbati” ishlab chiqarish korxonasi tashkil etilgan. Korxona yiliga 1000 tonna anorni qayta ishlashga mo’ljallangan. Chunki anor po’sti dunyoda eng qimmatbaho ashyolardan hisoblanib, undan farmasevtika, lak-bo’yoq mahsulotlari ishlab chiqarish hamda chorva ozuqasi uchun komponent sifatida foydalaniladi. Danak moyi esa farmasevtika va kosmetika sanoatida keng qo’llaniladi. Uning mahsulotlari Qozog’iston va Tojikiston davlatlariga eksport qilinadi.
Sirdaryo tumani. “Peng-Sheng” QK qoshidagi zamonaviy issiqxona	Issiqxona 2019-yilda barpo etilgan bo’lib, bugungi kunda unda banan, apelsin va boshqa sitrus mevalar yetishtirilib, ichki bozorga eksportga yo’naltirilgan.
Sirdaryo tumani. Hunarmand, haykaltarosh Boyto’rayev Ulug’bek ustaxonasi	Boyto’rayev Ulug’bek Sangiboy o’g’li 2016-yildan beri haykaltaroshlik yo’nalishida faoliyat yuritib, 20 turdan ortiq mahsulotlar yasab kelmoqda va Turkiya, Rossiya, Qozog’iston, Ozarbayjon Respublikalariga eksport qilinmoqda.
Sirdaryo tumani. “O’zbekiston-Xitoy Do’stlik bog’i”	14,7 gektar maydonni egallagan mazkur maskani ikki xalqning me’moriy an’alarining o’zida mujassamlashtirgani bilan e’tiborga molik. Unga tashrif buyuruvchilar sharqona usulda qurilgan shiypnonli yo’laklar bo’ylab sayr qilib, hovuz atrofiga hordiq chiqarishadi. Bolajonlar uchun atraksion maydonchasi ham tashkil etilgan. Zamonaviy o’yingoh esa sport mashg’ulotlari hamda turli madaniy tadbirlarni o’tkazishga xizmat qiladi.
Sirdaryo tumani. “Barxan” dam olish maskani	Asalchi qo’rg’oni “Barxan” dam olish maskani 2004-yildan buyon faoliyat olib bormoqda. 13 gektarli hududda 3 ta dam olish korpusi mavjud bo’lib, u 12 ta xorijiy va mahalliy turistlarni qabul qilish imkoniyatiga ega. Shuningdek, daryo bo’yida ham jami 80-90 kishilik dam olish joylari hamda 3 gektar mevali bog’ barpo etilgan. Bog’da o’rik, bexi, anor, olxo’ri, tut, uzum, olcha, gilos kabi daraxtlari ekilgan bo’lib, ular tashrif buyurgan mehmonlarga tortiq etilmoqda. Maskanda baliq ovlaydigan maxsus baliq hovuzi, kateringda sayr qilish, bilyard stoli, stol tennisi, voleybol maydoni, 20x40 futbol maydoni barpo etilgan.



Sirdaryo tumani. "Chinor" dam olish maskani	"Chinor" dam olish maskani 2018-yildan buyon faoliyatini boshlagan bo'lib, hududi 5,2 gektarni tashkil etadi. 10 ta dam olish korpusida 50 ta xorijiy va mahalliy turistlarni qabul qilish imkoniyatiga ega. Hududda maroqli dam olish uchun baliq ovlaydigan baliq hovuzi, voleybol maydoni, 20×40 futbol maydoni barpo etilgan.
Sirdaryo tumani. "Chehra" dam olish maskani	"Chehra" dam olish maskani 2019-yildan qonuniy ravishda faoliyatini boshlagan bo'lib, hududi 4 gektar yerni tashkil etadi. Majmuada bir paytning o'zida 30 ta xorijiy va mahalliy turistlarning dam olishlari va hordiq chiqarishlari uchun barcha qulayliklar mavjud.
"Kalgansir" davlat o'rmon-ov xo'jaligi	"Kalgansir" davlat o'rmon-ov xo'jaligi O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligining 2017-yil 3-martdagi 36-sonli bo'yruq'iga asosan qayta tashkil etilgan, yer maydoni 5294 gektar, shundan, o'rmon bilan qoplangan qismi 1064 gektarni tashkil etadi. Hudud Sirdaryo daryosi qirg'og'ida joylashgan bo'lib, xorijiy va mahalliy turistlar uchun o'tov va vagon domiklar barpo etilgan. Shuningdek, dam olish maskani, baliq ovlash, ov mavsumida yovvoyi cho'chqa (kaban), qirg'ovul (fazan), yovvoyi o'rdak, g'oz va boshqa parrandalarni ov qilish uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, har qanday hududda turizm sohasi shakllanar ekan, u yerda, avvalo, turistik resurslar mavjud bo'lishi talab etiladi. Mazkur resurslar turizm faoliyatini tashkil etishning asosiy manbai hisoblanadi. Shu bilan birga, har bir hududning turistik salohiyati mavjud resurslarning miqdoriy va sifat jihatlarini bevosita bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham turistik resurslarni har tomonlama o'rganish, ularni baholash hamda ularning turizm faoliyatidagi foydalanish imkoniyatlarini aniqlash muayyan mintaqada turizmni rivojlantirish istiqbollarini belgilab beradi.

Sirdaryo viloyatida ham ko'plab turistik resurslar mavjud bo'lib, ular hududning turistik salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'kidlab o'tish kerakki, viloyatda ekoturizm, ziyorat turizmi, tarixiy-madaniy turizm, arxeologik turizm, gastronomik turizm, agroturizm kabi yo'nalishlarni keng rivojlantirish uchun yetarli asoslar mavjud.

Biroq bu imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun, eng avvalo: mavjud turistik resurslarni chuqur o'rganish va tahlil qilish, turistik resurslar joylashgan hududlar infratuzilmasini zamonaviy talablarga mos holda rivojlantirish, hududning sayyohlar uchun jozibadorligini oshirish, ichki va xorijiy turistlarga yuqori sifatli xizmatlar ko'rsatishni yo'lga qo'yish lozim. Shuningdek, quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir: mehmonxonalar va ularga o'xshash joylashtirish vositalari hamda ovqatlanish maskanlarining xizmat sifati va turlarini ko'paytirish;

turistlar uchun mavzuli turistik marshrutlar tuzish va ularga asoslangan majmuali turpaketlar ishlab chiqish; bozorning ehtiyojlarini hisobga olgan holda marketing tadqiqotlarini muntazam o'tkazish; turistik firmalar bilan barqaror hamkorlik mexanizmlarini shakllantirish; xorijiy turistlarni jalb etish maqsadida Sirdaryo viloyatining turistik brendini yaratish; turizm sohasi uchun malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash va ularni jalb etish.

Mazkur chora-tadbirlar Sirdaryo viloyatining turizm salohiyatini har tomonlama ro'yobga chiqarish hamda uni mamlakatimizning eng jozibador sayyohlik markazlaridan biriga aylantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alixonov B., Abdullayev T., Oripov T. O'zbekiston tabiati. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi, O'zbekiston ekologik harakati nashriyoti, yil ko'rsatilmagan.
2. Nig'matov A. Turizm va uni Sirdaryo viloyatida rivojlantirishning geografik jihatlarini. – Elektron manba: <https://www.sirstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/16942-sirdaryo-viloyatining-doimiy-aholisi-qancha-14>. – Murojaat qilingan sana: 19-iyun, 2025-y.
3. Sirdaryo viloyati statistik ma'lumotlari. – Elektron manba: <https://www.sirstat.uz/uz/432-analiticheskie-materialy-uz/2022>. – Murojaat qilingan sana: 19-iyun, 2025-y.
4. Kalgansir – Sirdaryo viloyatidagi ovchilik markazi. – Elektron manba: <https://uzbekistan.travel/ru/o/kalgansyr-centr-ohotnichego-promysla-v-syrdarinskoy-oblasti>. – Murojaat qilingan sana: 19-iyun, 2025-y.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
